

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Ro‘yxatga olindi:  
№ MD-5A120302-  
“    ”         201\_ yil

Samarqand davlat universiteti  
rektori  
                     I.Xalmuradov  
201     yil “    ”         

**YANGI VA ENG YANGI ZAMON DAVRI XALQARO MUNOSABATLAR  
TARIXI FANINING**

**O‘QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	100000	–	Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	120000	–	Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	5A120302	–	Tarix (yo‘nalishlar va mamlakatlar bo‘yicha)

**Samarqand – 201\_**

Fan dasturi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (201\_ yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi “\_\_\_” -sonli bayonnoma).

**Fakultet dekani:**

**dots.D.M. Djurakulova**

Fan dasturi Samarqand davlat universitetida ishlab chiqildi.

**Tuzuvchilar:**

To‘raqulov B.T. - SamDU Tarix fakulteti, Jahon tarixi kafedrası dotsenti, tarix fanlari nomzodi

**Taqrizchilar:**

Handamova M. - SamDChTI ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Rahmatullayev M.R. - SamDU Tarix fakulteti, Jahon tarixi kafedrası o‘qituvchisi, t.f.n.

Fanning dasturi Samarqand davlat universiteti o‘quv-uslubiy kengashining 201\_ yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_dagi “\_\_\_”-son majlis bayoni bilan ma’qullangan.

**O‘quv uslubiy Kengash raisi:**

**prof.A.S.Soleev**

## **Kirish**

«Yangi va eng yangi zamon davri xalqaro munosabatlar tarixi» 5A120302 – Tarix (yo'nalishlar va mamlakatlar) magistratura yo'nalishi bo'yicha magistrantalari uchun o'tiladigan tanlov fanlaridan biridir. Mazkur fan tarixshunoslikda qabul qilingan xronologik ramkaga asosan, XVII asrning o'rtalaridan to bugungi kunga qadar bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Shunga ko'ra, mazkur fan insoniyat tarixiy taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rganishda alohida o'rin tutadi.

Davlatlararo siyosiy va diplomatik aloqalar bu – insoniyatning tarixiy taraqqiyoti asosini tashkil etuvchi xususiyatlardan biridir. Diplomatiya tushunchasi talabalarda, o'zaro va davlatlararo nosabatlarni anglatadi. Mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga har tomonlama integrasiyasini chuqurlashtirish, xalqaro munosabatlarda davlatimiz ishtirokini taminlashni maqsad qilgan xolda yangi zamon davrida davlatlarning tashqi siyosati va diplomatik aloqalarini yanada chuqurroq o'rganishga xizmat qiladi. Diplomatiyada dolzarb masalalarni horijiy mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotini tarixiy nuqtai nazardan o'rganmasdan turib hal etib bo'lmaydi. Jahon tarixini mukammal darajada bilmoq insoniyat sivilizasiyasining yutuqlaridan va tajribasidan to'la bahramand qiladi, umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetishga ko'maklashadi va dunyo miqyosida mavjud bo'lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topishga imkoniyat yaratadi.

Jahon tarixi bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lish, yangi zamon davrida dunyo mamlakatlarining diplomatiyasi va tashqi siyosati borasidagi talabalarning dunyoqarashini kengaytirish yo'lidagi eng samarali vosita sifatida ahamiyatlidir. Qolaversa, mamlakatimiz hamkorlik qilayotgan davlatlarning rivojlanish darajasini, xalqlarning mentaliteti, urf-odatlarini, madaniyatini tushunib yetish uchun ham jahon tarixi fanining beqiyos ahamiyatini tan olish kerak.

Dunyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy va etnik evolyusiyasining asosiy bosqichlari, hamda yo'nalishlari haqida talabalarga har tomonlama bilimlar berish.

Jahon tarixining turli bosqichlarida xususan yangi zamon davrida ro'y bergan muhim voqyealar va jarayonlarni yoritib berish; – insoniyatning ko'p asrlik taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan omillarni tahlil qilish; - tarixiy rivojlanish davomida turli mamlakatlar va mintaqalarga xos bo'lgan xususiyatlarni ochib berish; - dunyoning turli chekkalarida ro'y bergan voqyealar va jarayonlarning ko'p hollarda o'zaro bog'liqligini talabalarga tushuntirish; - tarixiy rivojlanishning

barcha mamlakatlar uchun umumiy qonuniyatlar mavjudligini namoyon qilish. Tarixda alohida shaxslarning o'rnini ko'rsatib berish va boshqalardan iborat.

“Yangi va eng yangi zamon davri xalqaro munosabatlar tarixi” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistr:

- Yangi va eng yangi zamon davri xalqaro munosabatlar tizmining shakllanishi va taraqqiyotini tarixiy tahlildan o'tkazadi. Xalqaro aloqalar va diplomatiya instituti va tashkilotlari paydo bo'lishi va uning yangi va eng yangi zamon davridagi takomillashuvi bo'yicha bo'lgan ma'lumotlarni ***bilishi kerak***;
- Yangi zamon davridagi xalqaro munosabatlar ham jahon tarixining ajralmas qismi sifatida boshqa davrlar bilan o'zaro bog'langan holda o'rganishni taqozo qiladi. Shunday ekan magistrlar mazkur fanni o'rganish jarayonida yangi zamon davri tarixi bo'yicha ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak***;
- Magistr jahon miqyosida birinchi marta g'alaba qilgan burjua inqilobi, yangi burjua davlatining tashkil topishi, rivojlanishi, jahon xalqlarining yangi davrga o'ta boshlashi, shu bilan birga har bir siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga siyosatchilarning, diplomatlarning va davlat boshliqlarining munosabati masalasiga, eng yangi davrdagi xalqaro munosabatlar masalalariga, xalqaro tashkilotlarning paydo bo'lishiga, harbiy-siyosiy bloklarning paydo bo'lishi, «sovuq urush» kabi alohida masalalarga etibor qaratishi lozim. Undan tashqari har bir talaba jamiyat taraqqiyoti bosqichlari jarayoni malakalariga ega bo'lishi kerak.

#### **Fanning o'zlashtirilishiga qo'yiladigan talablar.**

- Dars orqali talabalarda mavzu bo'yicha umumiy tasavvur hosil qilinadi. Sodir bo'lgan tarixiy voqeyelik to'g'risida tushunchaga ega bo'ladi.
- Talaba o'tilgan mavzu bo'yicha umumiy nazariy bilim va ko'nikmaga ega bo'ladi. Talabaning tarixiy mushohadalash, tarixiy jarayonlarga o'z mustaqil nuqtai nazarini bildira olish, fikrini erkin bayon etish qobiliyati shakllantiriladi hamda rivojlantiriladi.
- Dars orqali talabani mustaqil ilmiy faoliyatga jalb etishga, fanga, tarixga bo'lgan qiziqishini o'stirishga harakat qilinadi.

#### **Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi**

Magistrantlar “Yangi va eng yangi zamon davri xalqaro munosabatlar tarixi” fanini samarali o'zlashtirishlari uchun “Jahon tarixi”, “Vatan tarixi”, “Siyosatshunoslik”, “Madaniyatshunoslik”, “Tarix falsafasi va metodologiyasi”,

“Arxeologiya”, “Manbashunoslik”, “Tarixshunoslik”, “Etnologiya” va boshqa fanlardan ham yetarlicha bilimlarga ega bo’lishlari lozim.

### **Fanning ishlab chiqarishdagi o’rni**

Jahon xalqlarining tarixiy rivojlanishini bosqichma-bosqich tarixiylik, ilmiylik, xolisona yondashuv negizida o’rganish.

Seminar mashg’ulotlari bo’yicha mavzular rejasi va adabiyotlar ro’yxati talabalarga taqdim etiladi va talaba mustaqil tayyorlanib kelib munozara tarzida o’z bilimini namoyish etadi.

Taqdim etilayotgan fanning dolzarb masalalari bo’yicha mavzular va adabiyotlar ro’yxati talabalarga taqdim etiladi. Talaba, o’z navbatida mustaqil tayyorlanib ma’ruza va referat shaklida o’z bilimini namoyish etadi.

### **Fanni o’qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar**

Dasturda ko’rsatilgan mavzular ma’ruza, seminar shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ish sifatida o’zlashtirish uchun beriladi. Fan zamonaviy pedagogik texnologiyalarning “Klaster”, “Bumerang”, “FSMU”, “Aqliy hujum” singari metodlari orqali, hamda slaydlar, multimediya namoyishlari bilan o’tkaziladi.

Dasturdagi mavzularning informasion asosini fanga tegishli adabiyotlar, davriy adabiyotlar, internet ma’lumotlari tashkil qiladi.

Dasturdagi mavzularni o’qitishda ta’limning zamonaviy metodlaridan keng foydalanish, o’quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu borada zamonaviy pedagogik texnologiyalarning “Klaster”, “Bumerang”, “FSMU”, “Aqliy hujum” metodlari, shuningdek, slaydlardan foydalanish, didaktik va roli o’qish usullarini qo’llash nazarda tutiladi.

## **ASOSIY QISM**

### **Kirish. (Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tushunchalari. Manbalar)**

Mazkur fanning mazmuni va vazifalari. Fanning mohiyati. Xalqaro munosabatlar tarixidan. Diplomatiya tarixidan va uning asosiy xususiyatlari. Manbalar tafsiloti. Yangi zamon davrining xalqaro munosabatlari va diplomatiyasi tarixshunosligi. Adabiyotlar sharhi.

Diplomatik marosimlarning paydo bo’lishi. Karl V (Ispaniya) davridagi qabul marosimlari. Fransiya va Angliyada elchilarni qabul qilish. Papa saroyidagi elchilarni qabul qilish odatlari. Rus elchilarining Rimda qabul qilinishi.

Diplomatiya sohasidagi nazariyalarning vujudga kelishi. Boltazar Alma va uning asari. Alberiko Jentili va uning «Elchiliklar to'g'risida» asari. Gugo Grosiya – xalqaro munosabatlar (huquq) asoschisi. «Urush va tinchlik huquqlari to'g'risida» asari. Elchilik huquqlarining shakllanishi. Richard Zauch va Avraam Vikfor asarlari. Xalqaro huquqning matbuot sahifalarida yoritilishi.

### **O'ttiz yillik urushdan keyingi xalqaro munosabatlar (XVII asrning ikkinchi yarmi XVIII birinchi yarmida)**

30 yillik urushdan keyin vujudga kelgan Yevropa xaritasi. Tashqi siyosat va diplomatiya bilan shug'ullanuvchi idoralar. Yevropa davlatlarining tashqi siyosat va diplomatiyasidagi asosiy yo'nalishlar. Yevropa siyoastida fransuzlar hukmronligining o'rnatilishi. Rossiya monarxiyasining xalqaro munosabatlar sahnasiga aktiv kirib borishi. Andrusov sulhi. Lyudovik XIV qo'llagan diplomatiya. Pireniya sulhi. Mariya Tereziya. «Devolyusion urush». Axen sulhi. Duvr shartnomasi. Fransuz – Gollandiya munosabatlari. Vilgelm Oranskiy diplomatiyasi. Nimvegen shartnomasi. Augsburg ligasining tashkil topishi. 1688 yil Angliyadagi davlat to'ntarishi. Risvik shartnomasi.

### **XVIII asr o'rtalarida xalqaro munosabatlar**

Ispaniya merosi uchun urush (1701-1714). Utrext sulhi. Polsha masalasi. Xalqaro munosabatlarda (1730-1735). Avstriya merosi uchun urush (1740-1748) va diplomatiya. Avstriya-Prussiya raqobati. Fridrix II diplomatiyasi. Lyudovik XV davrida fransuz diplomatiyasi. XVIII asr birinchi yarmida Angliya tashqi siyosati. Uilyam Pitt Katta diplomatiyasi. Anglo-fransuz raqobati. Yetti yillik urush (1756-1763) ning diplomatik tayyorlanishi. Asosiy janglari. Rus armiyasining muvaffaqiyatlari. Prussiyaning qutqarilishi. Urushning yakuni va natijalari. Sulh shartnomalarining imzolanishi.

### **Napoleon Bonapart diplomatiyasi**

Konsullik davrida Fransiyaning ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyoti. Imperiyaning e'lon qilinishi. Davlat tuzumi. Napoleon bosqichlik yurishlari. 2-koalisiya urushining tugashi. Amyen sulhi. Fransiya va Angliya o'rtasida munosabatlarning keskinlashuvi. 3-koalisiya. 4-koalisiya. Kontinental qamalning boshlanishi. Tilzit sulhi. 5-koalisiya va Avstriyaning mavh etilishi. 1812 yilgi urushning diplomatik tayyorlanishi. Ittifoqchi qo'shinlarning Fransiya hujumi. Shomon traktati. Napoleon imperiyasining inqirozi. 1-Parij sulhi va Burbonlar hokimiyatining tiklanishi.

## **XIX asr o'rtalaridagi xalqaro munosabatlar**

«Muqaddas ittifoq» ning tuzilishi va keyingi siyosiy vaziyatlar. Troppau (Tropave) va Laybax (Lyublyan)dagi kongresslar. 1822 yil Angliya tashqi siyosatidagi burilish. Grek muammosi. Rossiyaning Angliya va Fransiya hukumatlari bilan munosabatlari va Peterburga Vellington missiyasi. Turkiyaga qarshi uch davlat ittifoqining tashkil topishi. 1828-1829 yillardagi Rus-turk urushi va Adrianopol tinchlik bitimi. Fransiya'dagi iyul to'ntarishi va Polshadagi 1830-1831 yil qo'zg'olon. 1848-1849 yillardagi inqiloblar davrida Yevropa davlatlari diplomatiyasi. 1853 yilgi Rus-turk ziddiyati va Qrim urushining boshlanishi, Angliya va Fransiyaning Rossiyaga qarshi harakatlari. Napoleon III ning 1854 yil 18 iyuldagi «To'rt punkti». 1856 yildagi Parij kongressi, urush yakunlari. 1856-1863 yillarda Yevropa davlatlari diplomatiyasi.

### **O.Bismarkning diplomatik san'ati va mamlakatni birlashtirish siyosati**

Bismark to'g'risida. Ittifoq Seymida Prussiya vakili. Prussiyaning Peterburgdagi elchisi. Rus saroyining ishonchini qozongan elchi. Parijda Prussiya elchisi. Napoleon diplomatiyasini o'rganish. Bismarkning Bosh vazirlikka taklif etilishi. Germaniyani birlashtirish masalasida bismarkcha dastur. Birlashtirish urushlarining diplomatik tayyorlanishi. Biarriisdagi va'dalar. Yevropadagi xalqaro vaziyat va Bismark diplomatiyasi. Baron fon Beyst va Avstro – Vengriya kelishuvi. Fransiya va Prussiya diplomatiyasida Lyuksemburg masalasi. Lyuksemburg muhokamasidagi xalqaro konferensiya. Bismark – Benedetti. Vilgelm I va Fransiya elchisi. Fon Abeken depeshasi. Tyuilri saroyidagi inqirozning chuqurlashuvi. Ispan taxtiga davogar. Fransiya imperatorining diplomatik xatosi. Fransiya – Prussiya urushining boshlanishi.

### **XIX asrning 70-yillarida Angliya va Rossiyaning Markaziy Osiyo uchun diplomatik kurashi**

70-yillarda Yevropada xalqaro munosabatlar va undagi ingliz-rus munosabatlari. O'rta Osiyo masalasida ingliz diplomatiyasi chiqargan nazariya. O'rta Osiyoda Rossiya manfaatlari. O'rta Osiyo masalasida ingliz va rus diplomatiyasining imkoniyatlari. Afg'oniston – Angliyaning asosiy obyekt. Mayo va Sherali munosabatlari. Ambaldagi kelishuv. Inglizlar taklif etgan «betaraf bo'lak». Rus diplomatiyasining ingliz taklifiga munosabati. Ingliz konservativ hukumatining diplomatiyasi. Peshevordagi muzokaralar. Rus–afg'on munosabatlari. Inglizlarning Turkmanistonga bosqini. N.Chemberleni missiyasi.

### **Xalqaro munosabatlarda Yaqin Sharq inqirozining tutgan o'rni**

Gersogovina qo'zg'oloni va Yevropa davlatlari diplomatiyasi. Bolgarlar qo'zg'olonining bostirilishi va serb-turk urushi. Reyxshtad muzokaralari. Angliyaning aksilturk kompaniyasi. Dizraeli va Turkiya taqdiri masalasi. General Verder missiyasi. Baron Myunx missiyasi. Konstantinopol konferensiyasi. Bolagr milliy ozodlik harakatlari diplomatiyasi. Budapesht konvensiyasi. London protokoli.

### **Rus-turk urushi (1877-1878) va Berlin kongressining diplomatik tayyorlanishi**

Parij kongressida keyingi xalqaro munosabatlar. Xalqaro munosabatlarda Bolqon masalalari. Rus-Turk munosabatlari va urushning boshlanishi. Urush yillarida rus diplomatiyasi. Shuvalov. Harbiy to'qnashuvlar. Turkiyaning Yevropa davlatlariga murojaati. Diplomatiq muzokaralar. Adrianopoldagi dastlabki sulh. San-Stefano sulhining imzolanishi va uning shartlari Yevropa diplomatiyasining San-Stefano sulhiga munosabati. Berlin kongressining diplomatik tayyorlanishi. «Buyuk davlatlar»ning til biriktirishi. Bismarkning «o'yini». Dizraelining diplomatik «injiqliklari». Rus diplomatiyasi oldida turgan vazifalar va ularning yechimi. Kongress qabul qilgan qarorlar va ularning xalqaro munosabatlarga ta'siri.

### **Birinchi jahon urushining diplomatik tayyorlanishi va urush yillaridagi diplomatik kurash**

XIX asr oxirlarida Yevropadagi xalqaro munosabatlar. Avstriya-Germaniya munosabatlari. Avstriya-Germaniya o'rtasida maxfiy ittifoqning tuzilishi. Italiyaning avstro-german ittifoqiga qo'shilish sabablari. XX asr boshlaridagi xalqaro munosabatlar. Ingliz-fransuz munosabatlari. Antanta ittifoqining imzolanishi. Rossiya-ingliz munosabatlari. Rossiyaning Antanta ittifoqiga qo'shilishi. Xalqaro munosabatlardagi harbiy inqirozlar. Birinchi marokash inqirozi. Xalqaro kongress qarorlari. Bosniya inqirozi. Rus diplomatiyasining yon berishi. Ikkinchi Marokash inqirozi va tomonlarning kelishuvi. Bolqondagi inqiroz. Bolqon ittifoqi. Birinchi Bolqon urushi. Ittifoqchilar ziddiyati. Ikkinchi Bolqon urushi. Angliyaning urush arafasidagi diplomatiyasi. Sarayevodagi suiqasd. Urushning hozirlanishi va boshlanishi.

### **Versal-Vashington tizimi va uning siyosiy oqibatlari**

Birinchi jahon urushining tugallanishi va asosiy davlatlarning xalqaro sahnadagi pozitsiyalari. V.Vilsonning «14-moddasi». Parij konferensiyasining



ochilishi. Versal shartnomasi. Millatlar Ligasi. Sen-Jermen tinchlik shartnomasi. Ney, Trianon va Sevr tinchlik shartnomalarning imzolanishi. AQSh va Versal tizimi. Vashington konferensiyasining ochilishi. «To'rtlar shartnomasi», «beshlar shartnomasi» va «to'qqiz mamlakat shartnomasi» Versal-Vashington tizimidagi ziddiyatlar. Genuya konferensiyasi. Rapallo. Yaqin Sharqdagi xalqaro munosabatlar. Lozanna konferensiyasi. «Rur inqirozi» Daues rejasi.

### **XX asr 20-yillarining ikkinchi yarmi va 30-yillarning boshlarida xalqaro munosabatlar**

Lokarno konferensiyasi va Lokarno ahdomasi. «Brian-Kellog ahdomasi» va uning taqdiri. Yung rejasi va uning mohiyati. Guverning reparasiyalar va davlatlararo qarzlarni to'xtatish to'g'risidagi bayonoti. Lozanna konferensiyasi (1932). Qurolsizlantirish bo'yicha Jeneva xalqaro konferensiyasi (1932). SSSR va Fransiya o'rtasidagi hujum qilmaslik to'g'risidagi ahdomaning imzolanishi (1932). Shimoliy Sharqiy Xitoyning Yaponiya tomonidan bosib olinishi. Manjougou. Litton komissiyasi va Yaponiyaning Millatlar Ligasidan chiqib ketishi.

### **Ikkinchi jahon urushi arafasida xalqaro munosabatlar**

Sudet inqirozi. Sudet inqirozi bo'yicha g'arb va Sovet Ittifoqi hukumatlarining pozitsiyalari. Myunxen bitimi. Davlatlararo munosabatlarning keskinlashuvi. Germaniya tomonidan Chexoslovakiyaning butunlay bosib olinishi. Fashistik davlatlari agressiv siyosatining avj olishi. 1939 yilning 17 aprelida SSSR hukumati tomonidan kiritilgan taklifi. SSSR, Angliya va Fransiya davlatlari o'rtasidagi 1939 yilning avgustida Moskvada bo'lgan muzokaralar. SSSR-Germaniya o'rtasida «hujum qilmaslik» to'g'risidagi shartnomasining imzolanishi. Ribbentrop-Molotov ahdomasining maxfiy bandlari. Uzoq Sharqdagi harbiy siyosiy vaziyatning keskinlashuvi. Xasan ko'li va Xalxin-Gol daryosi atrofidagi voqaealar.

### **SSSR-Germaniya urushi va «Katta uchlik» orasidagi ittifoqchilik munosabatlari**

SSSR-Germaniya urushining boshlanishi. «Barbarossa» rejasi. Gitlarga qarshi koalitsiyasining vujudga kelishi. Tinch okeandagi harbiy harakatlarning boshlanishi. Pyorl-Xarbor. Sovet-German frontidagi harbiy harakatlar va ikkinchi front muammosi. Italiyaning taslim bo'lishi. Tashqi ishlar vazirlarining Moskvadagi konferensiyasi. «Katta uchlik»ning Tehrondagi uchrashuvi va unda qabul qilingan qarorlar. Qrim konferensiyasi. BMTning tashkil topishi.

Germaniyaning taslim bo'lishi. Potsdam konferensiyasi. Yaponiyaning taslim bo'lishi va ikkinchi jahon urushining tugashi.

### **«Sovuq urush» siyosatining vujudga kelishi va Yevropada xalqaro munosabatlarning keskinlashuvi**

Ikkinchi jahon urushidan keyingi qarama-qarshilik. U Cherrillning Fultondagi nutqi. «Temir parda»ning tushirilishi. «Sovuq urush»ning yadroviy qurollanish poygasi darajasiga ko'tarilishi. «Trumen doktrinasi». «Marshal rejasi». Berlin inqirozi. Shimoliy Atlantika shartnomasiga (NATO) imzo chekilishi. Koreya urushi. Xindi-Xitoy bo'yicha Jeneva shartnomasi. SEATO. Bag'dod pakti. GFRning NATO tarkibiga qabul qilinishi va Varshava shartnomasining tashkil topishi. SSSR Oliy Soveti prezidiumining SSSR va Germaniya, SSSR va Yaponiya o'rtalaridagi urush holatining to'xtatilishi to'g'risidagi farmonlari. Germaniya muammosi. Germaniya Demokratik Respublikasi hukumatining 1961 yil 13 avgustida amalga oshirgan chora-tadbirlar. Karib tangligi. Xalqaro keskinlikning yumshashi (detant). Vyetnamdagi urushning to'xtatilishi. Yevropada havfsizlik va hamkorlik bo'yicha kengashning chaqirilishi (1973-1975 yy.)

### **SSSR-AQSh munosabatlari (70-80 yillar)**

G'arbiy Berlin masalasi bo'yicha SSSR, Fransiya, AQSh va Buyuk Britaniya o'rtalarida shartnomaning imzolanishi. AQSh prezidenti R.Niksonning SSSRga tashrifi va «SSSR va AQSh o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning negizi» hujjatning imzolanishi (1972). SSSR va AQSh o'rtasida yadroviy urushning oldini olish to'g'risidagi shartnomasining imzolanishi (1973). Venada SSSR va AQSh o'rtasida strategik qurollarni cheklantirish to'g'risidagi shartnomaning imzolanishi (1979). Jenevada Yevropadagi yadroviy qurollarning cheklantirish bo'yicha Sovet-Amerika muzokaralarning boshlanishi. SSSR rahbari M.S.Gorbachev va AQSh prezidenti R.Reygan o'rtasida Jenevadagi (1985), Reykyavikdagi (1986), Vashingtondagi (1987) va Moskvadagi (1988) uchrashuvlar. G.K.Ch.P.ning isyoni. SSSRning parchalanishi. «Sovuq urush»ning tugashi.

### **Yaqin Sharqdagi siyosiy inqiroz: kelib chiqishi, asosiy bosqichlari va hozirgi ahvol**

Angliyaning Falastin masalasi bo'yicha qo'llagan siyosati. Lord Pil komissiyasi. «Makdonald memorandum». «Trumen rejasi». BMT Bosh Assambleyasining II sessiyasi va Falastin masalasi (1947). 1947 yil 29 noyabrdagi BMT Bosh Assambleyasining №181 qarori. Isroil davlatining tashkil topishi va

1948-1949 yillar Falastin urushi. Misr inqilobi. Bag'dod pakti. 1956 yildagi Misrga qarshi «uchlar agressiyasi». «Eyzenxauer doktrinasi». Birlashgan Arab Respublikasining tashkil topishi. 1967 yildagi Isroilning agressiyasi arafasida Falastin muammosi. «Olti kunlik urush» va uning siyosiy oqibatlari. A.Saadatning tashqi siyosati. 1973 yildagi to'rtinchi arab-isroil urushi. Falastin Ozodlik Tashkilotining dunyo hamjamiyati tomonidan tan olinishi (1974) va F.O.T.ga BMTdagi nazoratchi maqomining berilishi. KEMP-Devid bitimi. Arab davlatlarining «mo'tadillar» va «murosasizlar»ga parchalanishi. «Sahrodagi bo'ron» operatsiyasi. F.O.T. va Isroil o'rtasidagi «tamoyillar deklaratsiyasi»ning imzolanishi (1993). Falastin muxtoriyatining tashkil topishi (1994). Yo.Arafat. M.Abbos. 2002 yildagi Vashington konferensiyasi va «yo'l xaritasi» deb nomlangan Yaqin Sharq inqirozini bartaraf etish rejasi.

### **Birlashgan Millat tashkiloti va uning xalqaro munosabatlardagi o'rnini va roli**

«Birlashgan millatlar» atamasining paydo bo'lishi. Dumbarton-OKS konferensiyasi. BMT ustavi va uning kuchga kirishi. BMTning strukturasi va uning harakatlantiruvchi mexanizmlari. Falastindagi urushning to'xtatilishida (1947) Hindistonda Kashmir muammosining hal etilishida (1948), Indoneziya va Kipr nizolarining bartaraf qilinishida (1962, 1964) Yaqin Sharqda urush o'choqlarining o'chirilishida (1956, 1967, 1973) BMTning tutgan o'rnini va roli. 1960 yil 14-dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan mustamlaka mamlakatlar va xalqlarga mustaqillik berish to'g'risidagi deklaratsiyasining qabul qilinishi. 1981 yili BMT Bosh Assambleyasi tomonidan «Yadro halokatining oldini olish to'g'risida» va 1983 yili «Yadro urushini qoralash» haqida deklaratsiyalarining qabul qilinishi. 1990-1999 yillar BMT va xalqaro huquq o'n yilligi davri deb e'lon qilinishi. Nyu-Yorkdagi «ming yillik sammiti» (2000 yil 6-8 sentyabr). Dunyo siyosatida va xalqaro munosabatlarda madaniy sivilizasiya omillarining rivoj topishida BMT hozirgi vaqtdagi o'rnini.

### **Yevropa Ittifoqi va uning xalqaro munosabatlardagi o'rnini**

Yevropada urushdan keyingi vaziyat. Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasining barpo etilishi (YeKPB). Rim protokollarining imzolanishi va Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatiga (YeIH) yoki «Umumiy bozor»ga asos solinishi. K.Adenauer va Sh de Goll murosaga kelishga qaror qilishlari va Yevropaning bundan keyini birlashishi yo'lidagi muhim to'siqlarni olib tashlanishi. YeIH ga yangi a'zolarining kelishi. Maastrixt bitimlari. Yagona Yevropa valyutasini muomalaga kiritilishi. Yevropa siyosiy ittifoqni shakllantirish va Yevropa

kommisiyasini tuzish yo'lidagi harakatlar. Yevropa Iqtisodiy Hamjamiyatining nomini o'zgartirilishi va Yevropa Hamjamiyati deb atalgan. 2002 yil 1 yanvardan Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida (Angliyadan tashqari) Yevropaning yangi pul birligi-«yevro» muomalaga kiritilishi. Yevropa kengashining demokratiya va qonunchilik, shuningdek, inson huquqlarini rivojlantirish va himoya qilish yo'lida ko'rsatgan faoliyati.

### **«Sovuq urushi»dan keyingi xalqaro munosabatlar**

SSSRning parchalanishi va Mustaqil davlatlar hamdo'stligining tashkil topishi. 1992 yil 1 fevral Rossiya Federasiyasi va AQShning «Sovuq urush» holatini to'xtatish haqidagi bayonoti. Bosniyada fuqarolar urushi boshlanishi. Chexoslovakiyaning parchalanishi. Chexiya va Slovakiya mustaqilligining e'lon qilinishi (1993). G'arbiy Germaniyadan Rossiya qo'shinlarining chiqarilishi (1994). Rossiya qo'shinlarining Chechenistonda «Konstitusiyaviy tartibni o'rnatish bo'yicha» harbiy harakatlari (1994-1996). Kosovo hududiga NATO qo'shining kiritilishi (1999). Nyu-York va Vashingtonga terroristik hujum (2001 yil 11 sentyabr) va Afg'oniston hududida antiterroristik kompaniya boshlanilishi. AQSh va Buyuk-Britaniya koalision kuchlarning Iroq hududiga bostirib kirishi (2003 yil, may). Yevropa hamjamiyatining bugungi o'rni va roli.

### **Seminar mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Seminar mashg'ulotlarida magistrantlar «Yangi va eng yangi zamon davri xalqaro munosabatlar tarixi» fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim oladilar. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

Seminar mashg'ulotlarining taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

- 1.XVIII asr inqiloblariga nisbatan Yevropa monarxlarining diplomatiyasi
- 2.Vena kongressi diplomatiyasi va Taleyranning diplomatik mahorati
- 3.«Muqaddas ittifoqi» va XIX asr birinchi yarmidagi xalqaro munosabatlar
- 4.XIX asrning birinchi yarmida AQSh diplomatiyasi
- 5.XIX asrning birinchi yarmida Eron, Afg'oniston va O'rta Osiyodagi diplomatiya
- 6.Qrim urushi davrida Yevropa diplomatiyasi
- 7.Uchlar ittifoqi va Antanta harbiy-siyosiy bloklarning tuzilishi
- 8.XIX asr oxiri XX asr boshlarida Uzoq Sharqdagi diplomatiya

- 9.XIX asr oxiri XX asr boshlarida kapitalistik davlatlarning Afrikadagi mustamlakachilik siyosati
- 10.XX asr boshlarida xalqaro munosabatlarda Bolqon masalasi
- 11.Genuya konferensiyasi, Rapallo shartnomasi
- 12.Lokarno konferensiyasi
- 13.Brian-Kellog ahdnomasi
- 14.Fashistik Germaniyasining tashqi siyosati va xalqaro vaziyatdagi o'zgarishlar (1933-1939)
- 15.Ikkinchi jahon urushi davrida AQSh, Angliya va sobiq SSSR diplomatiyasi.
- 16.«G'alati urush» va g'arb davlatlarning tashqi siyosati
- 17.1950-1953 yillardagi Koreya urushi va xalqaro ahvol
- 18.Bandung konferensiyasi va tinch-totuv yashash prinsiplarining e'lon qilinishi
- 19.SSSR va Sharq Yevropa davlatlarida totalitar tuzumlarning qulashi va «Sovuq urush» davrining tugallanishi
- 20.Osiyo mamlakatlari jahon siyosatida (Yaponiya, Hindiston, Xitoy)

### **Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Magistrant mustaqil ishni tayyorlashda "Halqaro munosabatlar tarixi" fanini xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanishi tavsiya etiladi:

- darslik, xrestomatiya va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari, qismlari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha bo'limlar yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabanning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'li bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish.

#### ***Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:***

1. 1807-1814 yillarda Napoleon Bonapart diplomatiyasi.
2. Vena kongressi (1814 yil oktyabr – 1815 yil iyun).
3. Klemens Metternix diplomatiyasi (1773-1859).
4. Genrix IV diplomatiyasi.
5. Kardinal Rishelye diplomatiyasi.
6. Lyudovik XIV diplomatiyasi.
7. Kromvel diplomatiyasi.
8. XVII asrda Moskva davlatining xalqaro ahvoli.
9. Ispaniya merosi uchun urush (1701-1714) davrida xalqaro munosabatlar.

10. Lyudovik XV davrida fransuz diplomatiyasi.
2. Avstriya merosi uchun urush (1740-1748).
3. XVIII asr Angliya tashqi siyosati.
4. Angliyada Vilyam Pitt Katta diplomatiyasi.
5. Knyaz Bestujev-Ryumin diplomatiyasi.
6. Yekaterina II diplomatiyasi.
7. Benjamin Franklinning diplomatik faoliyati.
8. 1789-1792 yillarda Yevropa diplomatiyasi.
9. AQShning Janubiy Amerika masalasiga munosabati va Monro doktrinasi.
10. Nikolay I diplomatiyasi.
11. Lord Palmerston diplomatiyasi.
12. 1848-1849 yillar inqilobi davrida Yevropada xalqaro munosabatlar.
13. Napoleon III diplomatiyasi.
14. Qrim urushi (1853-1856).
15. AQShda fuqarolar urushiga Yevropa davlatlarining munosabatlari.
16. Knyaz A.M. Gorchakov (1798-1883)ning diplomatik faoliyati.
17. Otto fon Bismark diplomatiyasi.
18. Fransiya-Prussiya urushining (1870-1871) diplomatik tayyorlanishi (1867-1870).
19. Fransiya-Germaniya munosabatlari.
20. 1875-1877 yillardagi Sharq inqirozi.
21. Rapallo shartnomasi.
22. Rur inqirozi.
23. Jeneva xalqaro konferensiyasi (1932 y.)
24. Avstriyaning fashistlar germaniyasi tomonidan bosib olinishi.
25. Ribbentrop-Molotov axdnomasi.
26. «Dengiz sheri» rejasi va uning taqdiri.
27. Koreya urushi.
28. Karib inqirozi.
29. «Sovuq urush»ning tugashi.
30. Isroil davlatining tashkil topishi.
31. Kemp-Devid shartnomasi (26 mart 1979 y.)
32. «Saxrodagi buron» operatsiyasi
33. Falastin muxtoriyati (1994)
34. SSSRning parchalanishi
35. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH)ning tashkil topishi

## **Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti**

Dasturdagi mavzularning informatsion asosini fanga tegishli adabiyotlar, davriy adabiyotlar, internet ma'lumotlari tashkil qiladi.

Dasturdagi mavzularni o'tishda ta'limning zamonaviy metodlaridan keng foydalanish, o'quv jarayonini yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish samarali natija beradi. Bu borada zamonaviy pedagogik texnologiyalarning "Klaster", "Bumerang", "FSMU", "Aqliy hujum" metodlari, shuningdek slaydlardan foydalanish, didaktik va rolli o'qiy usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

### **«Yangi va eng yangi zamon davri xalqaro munosabatlar tarixi» fanidan adabiyotlar**

#### **Asosiy adabiyotlar**

1. Black Jeremy. A History of Diplomacy . London, Reaktion Books Ltd, 2010
2. Xolliev A. Xalqaro munosabatlar va diplomatiya tarixi. – T., 2014.
3. Богатуров А.Д., Аверков В.В. История международных отношений. 1945-2008. М., 2010.
4. История международных отношений. Основные этапы с древности до наших дней. – М., Логос, 2007. / под ред. Г.В.Каменской, О.А.Колобова, Э.Г.Соловьева.
5. Системная история международных отношений. 1918-2003. В четырех томах. Отв. Ред. А.Д.Богатуров. М.,2003.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

6. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажгимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кураимиз. – Тошкент: "Ўзбекистон" НМИУ, 2017. – 488 б.
7. Бажанов Е.П., Бажанова Н.Е. Многополюсный мир. М., 2010.
8. Бережков В.М. Страницы дипломатической истории. 4-ое издание. М., 1987.
9. Буданова В.П. Готы в эпоху великого переселения народов. М., 1990.
10. Дулина Н.А. Османская империя в международных отношениях (30-40-годы XIX века). М.,1980.
11. Загорский А.В. Хельсинский процесс: Переговоры в рамках Совещания по безопасности и сотрудничеству в Европе 1972-1991 гг. М., 2005.
12. Ивонин Ю.Е. У истоков Европейской дипломатии нового времени. Минск,1984.
13. История дипломатии. М.,1959-1963 гг. Т.І; ІІ.
14. Лебедева М.М. Мировая политика М., 2003.

- 15.Мировая политика после 1945 года. Книга 2, М., 2000.
- 16.Протопопов А.С., Козьменко В.М., Елманова Н.С. История международных отношений и внешней политики России 1648-2000. М., 2003.
- 17.Лавренов С., Попов И. Советский Союз в локальных войнах и конфликтах. М, 2003.
- 18.Современные международные отношения. М., 2000.
- 19.Созаев Э., Махов С. Схватка двух львов. Англо-голландские войны XVII века. М., 2011.
- 20.Стародубов В.П. Супердержавы XX века. Стратегическое противоборство. М., 2001.
- 21.Цыганков П.А. Теория международных отношений. М., 2003.
- 22.Aldrich Richard J. British intelligence and the Anglo-American Special Relations' during the Cold War. Review of International Studies, 1998.
- 23.Anderson, M. S., The Rise of Modern Diplomacy, 1450–1919. Harlow, 1993.
- 24.Kissinger Henry. Diplomacy. Highlighting edition. Simon & Schuster, 1994.
- 25.Mookerjee, G. K., Diplomacy: Theory and History . New Delhi, 1973.